

TASAVVUF TA'LIMOTIDA INSONNING IDROK ETISH XUSUSIYATLARI TAHLILI

Salimjon S.EVATOV

Farg'ona davlat universiteti

falsafa kafedrası katta o'qituvchisi(PhD)

e-mail: alfargoni.uz@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12204598>

Insonning idrok etish quvvati his-tuyg'udan boshlanib, aql bilan tugallanadi. Aql narsalar tarkibidan to'plangan natijalar vositasida bilish ufqlarini benihoyat darajada kengaytiradi. Ammo payg'ambarlar va maxsus malakaga ega bo'lgan avliyolar nabiylarning muqaddas ruhi, deb atalgan fazilatga ega bo'lib, uning vositasida "g'aybdagi lavhlar, oxiratdagi hukmlar, osmonlar va zamindagi malakutlarning bir qismidan, hatto qisman rabboniy ma'rifatdan ham" ogoh bo'ladilar. Kimki, bunday malakaga ega kishilar borligiga shubha bildirs, uni she'r yoki musiqani eshitishdan bebahra odamga o'xshatish mumkin bo'ladi. Negaki, bunday kishilar san'atning ushbu qoliplarini idrok etishga qodir bo'lmagan bo'ladilar. Bundaylar loaqal shunday imkoniyat borligiga ishonishlari lozim.

Ammo G'azzoliy fikricha, bilishning eng yuqori turi to'g'ridan-to'g'ri tajriba va "zavq" vositasida hosil qilinadigan aql yoki imon yo'li bilan qo'lga kiritilmaydi. Shunday bo'lsa ham, xudoni bilishning to'g'ri yo'li "tajribaviy" bilishlar jumlasidan joy oladi. Ba'zilar bu dunyoning shodliklari va g'am-g'ussalari bilan shunchalik mukkalardan ketadilarki, xudoning nurini idrok eta olmay qoladilar. Boshqa birovlar xudoni faqat bu dunyo bilan bo'lgan aloqasi doirasidagina biladilar, ya'ni osmonlarni aylantiruvchi va birinchi harakat manbai sifatida taniydilar.

Oллоhni bilishning barcha bosqichlarida oriflar parvardigorni uning haqiqiy zotini berkitgan "nur hijobi" orqali topadilar. Ammo oriflarning to'rtinchi guruhi, ya'ni "qo'shiluvchilar shuni idrok etadilarki, ushbu "subhon" shunday sifat sifatidirki, faqat yagonalik va mutlaq komillik unga xosdir. Shuning uchun ular o'z nigohlarini uning tomoniga, uni muqaddas yaratuvchiga hamda u yaratgan osmonlar va zaminlarga qaratadiki, eng uzoqdagi harakatlanuvchi olamlar ham undan farmon olib turadilar. Bu oriflar o'rtasida shunday kishilar boshqalardan afzaldirlarki, yagona haq (vohidul haq) darajasiga yetib kelganlarida fano bo'lib, yo'qlik darajasiga sho'ng'iydilar va shu sababdan o'zlarini ham, boshqa hech bir mavjud narsani ko'rmasdan, faqat Oллоhning jamolinigina ko'radilar, xolos. Ba'zida bunday so'fiyona holatni "fano" yoki "fano al-fano" deb ataydilar, zero, sufiy bu holatda o'zidan foni bo'ladi va o'zining foniyligidan ham foni bo'ladi. Ba'zilar (Shibliy, Bistomiy) soflikda shu darajada mastlik holatiga sho'ng'iydilar, o'zlarini xudo, deb biladilar. Haqiqatda esa, ular erishgan holat xudoni yagonaligini (tavhid) tasdiqlashdan boshqa narsa emas, ya'ni jahonda undan o'zga haqiqiy mavjud narsa yo'qligidan ogoh bo'lishlikdir. Ammo bunday holat boshqa-yu, u bilan birlashib ketish (ittihad) holati boshqa gap.

Shunday qilib, G'azzoliy shattoh holatidagi so'fiylardan oshkora ravishda aloqani uzishdan ko'ra, agarchi ularning ba'zida "yashiriladigan va aytib bo'lmaydigan" sirlarini fosh qilganliklari tufayli tanbehga sazovor, deb bilsa ham, o'z ustozini Junayd kabi vahdat vujud mohiyatini mahorat bilan uzoqlashtiradi va tanazzulga tushirishdan saqlab qoladi. Shuning uchun uning tasavvufni islomdagi tavhid (yakkaxudolik) g'oyasining e'tiborini kuchaytirishga

va uning tabiatan tashqaridagi narsalarda ham to'g'riligini isbotlashga urinish, deb tushunish mumkin.

Oллоh faqat sifatlar yoki xilma-xil aniq narsalar tufayli o'ziga ko'plikni qabul qiladi. Agar uning zotining o'ziga boqsak, u "haq"dir. Agar unga sifati jihatidan qarasak, ya'ni imkoni bor ko'plikdagi tajalliy topgan sifatiga boqsak, u "xalqdir" (yaratilgandir). Ammo buning har ikkisi, vahdat (yagonalik) va kasrat (ko'plik), avval va oxir, qadim (azaliy), muhdas (yaratilgan), vojib (zaruriy) va mumkin, zotiga ko'ra, bir haqiqatdan o'zga narsa emas[1].

Eng yuqori darajada namoyon bo'lish yoki ilohiy mazhar o'sha "birinchi inson namunasi"dirki, Ibn Arabiy uni Odam Ato bilan bir deb bilib, uni ilohiy kalima yoki komil inson deb ataydi. Darhaqiqat, bu jahonning borligi va mavjudligining sababining har ikkisi ana shu komil inson borligi tufaylidir.

Oллоh "surati" va unga o'xshab yaratilgan komil inson talqini yana Hallojga qaytishni taqozo etadi va tasavvufning Xudo va inson o'rtasidagi aqliy tafsirida muhim vazifani bajaradi. Ibn Arabiy lohut va nosutni bir-biridan farq qiluvchi ikki tabiat, deb tushunadi. Lohut o'zining yashiringanlik jihatidan har ikki mavjudning ichki mohiyatiga muvofiqdir, nosut esa tashqi jihatdan zohirdir. Falsafiy istilohida birinchisi javharg muvofiq kelsa, ikkinchisi araz (aksidensiya)dir. "Haq"ning namoyon bo'lishi insonda o'z avjiga chiqadi. Shunga binoan inson kichik olam yoki barcha yaratilgan narsalarning xulosasidir. U katta olamning barcha kamolotini, hamda ilohiy zotning kamolotini ham tajassum ettiradi. Ana shu dalilga muvofiq inson Qur'onda keltirilgandek, Oллоhning yerdagi xalifasi, ya'ni noibi sifatida saylangandir.

Shundan kelib chiqib bo'lsa kerak, ba'zi musulmon davlatlarining asosiy qonunlarida "Yer Oллоhnik" degan jumla qayd etilgan. Xususiy mulk egasi esa xalifadir. Shuning uchun unga topshirilgan mulkni, ya'ni yerni qarovsiz qoldirmasligi, uni ekib, parvarishlashi va mo'l hosil olishi shartdir.

Tasavvufning asosiy xizmati shundan iboratki, u "imon" tushunchasini shakllantiradi va uni "bilimdan" farqlaydi. Undan tashqari tasavvuf Oллоhni bilish muammosiga doir dalillar ishlab chiqdi. Moddiy dunyo narsa va hodisalari haqida ratsional bilim bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatib beradi, ularga nisbatan faqat "imon" tushunchasi ishlatilishi mumkin, ular haqidagi "bilim" esa irratsional va shaxsiy bo'lishi mumkin, lekin u ilmiy va asoslangan bo'lmaydi[2]. Mana shunday yondashuvlar asosida ilmiy faoliyatga doir yondashuvlarda xulosaviy fikrlar shakllana boshladi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o'zining "Tasavvuf haqida tasavvur" asarida tasavvufning vazifalarini quyidagicha keltiradi.

1. Muhaqqaq ulamolar tasavvufni "botiniy fiqh", ya'ni "ichki fiqh" deydilar. Ibodatlarini ado etish jaraynida qalbni qanday tutish kerakligini, xushu' va xuzu'ni qanday ado etish lozimligini oyat va hadislar hamda ijmo' va qiyos asosida botiniy fiqh ilmi -tariqat bayon qilib beradi.
2. Tasavvuf aqoid ilmiga ham yaqindan bog'liqligi bor. Ma'lumki, aqoid ilmi e'tiqod masalalarini muolaja qilib, odatda bu boradagi bosh masalalar haqida bahs yuritib, har bir masala bo'yicha oyat va hadislardan dalillar keltiradi. Ammo bu ilmda his-tuyg'u, zavqu shavq, qalbiy masalalar bayoniga ko'p ahamiyat berilmaydi. Tasavvuf esa aynan shu masalalarga katta e'tibor qaratadi.

Tasavvuf "qalb", "ruh", "aql" va "nafs" kabi ma'nolarni alohida ehtimom ila tushuntiradi va ularning har biriga musulmon banda qanday munosabatda bo'lishi zarurligini bayon qilib, o'sha bayonning tatbiq qilinishini ham yo'lga qo'yadi[3]. Shunday ekan, tasavvuf ilmini islom

dunyosining ilmiy va intellektual faoliyatida muhim o‘rin tutganligini va mutasavvuf olimlarning asarlari asosida islom dunyoqarashi burmuncha oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Umuman olganda, tasavvuf Islom dinining teosofiyasi, uning diniy falsafasi hamdir. Tasavvuf dinga nisbatan falsafa, falsafaga nisbatan diniy ta‘limotdir[4].

O‘rta asr Sharq teologik qarashlarining rivojlanishi va o‘zining aqidaviy asoslarini yaratishida hadis ilmiy ham muhim ahamiyatga ega va unda mazmunli davr bo‘lgan va “olti sahih to‘plami” vujudga kelgan. Mazkur hadislar to‘plamini yozgan muhaddislarga Ismoil al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Dovud as-Sijistoniyy, Abu Iso at-Termiziy, Ahmad an-Nasoiiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Mojja kabi muhaddislarni kiritish mumkin. Ahamiyatli tomoni shundaki, mazkur hadis to‘plovchi olimlarning ko‘pchiligi Markaziy Osiyolik bo‘lib, bu yerda hadis ilmidagi vorisiylik an‘analari kuchli saqlab qolinganligi, qadrlaganligi va keyingi avlodga yetkazish mas‘uliyati muhaddislik ilmidan kuchli vakillarning chiqishiga asos bo‘lgan. Shunday ekan, ma‘lum bir davrda bir hududda ilmiy faoliyatning rivojlanishi bilan birga vorisiylik an‘analari ham shakllansa, shu yerda ilmiy uyg‘onish va intellektual rivojlanish yuzaga kelgan. Markaziy Osiyoda hadis ilmida vorisiylik an‘analari asosida maktabning vujudga kelishi ham muhaddislik ilmining rivojlanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatganligini ko‘rishimiz mumkin.

References:

1. Affifi. The Mystical Philosophy of Ibnul-Arabi. – Cambridge: 1938. –P.101.
2. Frolova E.A. Istoriya srednevekovoy arabo-musulmanskoj filosofii. – Moskva: IF RAN, 1995. –S. 161.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. –Toshkent: “Hilol-nashr”, 2016. -B.66-68.
4. Xolmo‘minov J. Tasavvuf falsafasi. Tasavvuf ontologiyasi. .(O‘quv qo‘llanma).T.: “Yosh avlod matbaa”, 2021. – B.8.